



## **O‘ZBEKISTON TASHQI SAVDOSIDA TIR KARNET KITOBCHASI QO‘LLANILISHINING AYRIM JIHLATLARIGA OID**

**Qutlimuratov Bahodir Abdullayevich**

*Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi boshlig‘i, mustaqil tadqiqotchi.*  
[bqutlimuratov@bk.ru](mailto:bqutlimuratov@bk.ru) <https://orcid.org/0009-0002-6115-3206>

**Saidov Umarjon Shuhratovich**

*Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi bosh inspektori, mustaqil tadqiqotchi.*  
[saidumarkhan@bk.ru](mailto:saidumarkhan@bk.ru) <https://orcid.org/0009-0007-1611-9849>  
**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol11\\_iss4/a47](https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss4/a47)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada TIR KARNET kitobchasining qo‘llanilishi bilan bog‘liq ayrim ilmiy va amaliy mulohazalar yuritilgan. Unda bugungi kunda transport-logistika tizimining global miqiyosda raqamlashib borish jarayonini inobatga olgan holda tahlil qilingan. Tahlillar jarayonida kitobchanning qo‘llanilishi bilan bog‘liq jarayonlarning retrospektiv va perspektiv jihatlariga e‘tibor qaratilgan. Tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston manfaatlarini nuqtayi nazaridan amaliy asoslangan takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tashqi savdo siyosati, transport-logistika tizimi, TIR KARNET, Yevropa Ittifoqi, e-TIR, IRU, YAIM, chegara va tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona posti, COVID-19 pandemiyasi, xalqaro konvensiya.

### **О НЕКОТОРЫХ АСПЕКТАХ ПРИМЕНЕНИЯ КНИЖКИ МДП ВО ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА**

**Кутлимуратов Бахадир**

*Начальник таможенного управления Бухарской области, независимый исследователь.*

**Сайдов Умаржон**

*Главный инспектор Бухарского областного таможенного управления, независимый исследователь.*

### **Аннотация**

В этой статье приводятся некоторые научные и практические соображения, связанные с применением буклета книжки МДП. В частности, в статье проведен анализ с учетом процесса цифровизации действующей транспортно-логистической системы в глобальном масштабе. В процессе анализа внимание уделяется ретроспективным и перспективным аспектам процессов, связанных с применением книжки. По результатам анализа даны практические предложения с точки зрения интересов Узбекистана.

**Ключевые слова:** Внешнеторговая политика, транспортно-логистическая система, ТИР KARNET, Европейский Союз, e-TIR, IRU — всемирная автотранспортная организация, ВВП,

таможенный пост приграничный и внешнеэкономической деятельности, пандемия COVID-19, международная конвенция.

## REGARDING SOME ASPECTS OF THE USE OF THE TIR CARNET IN THE FOREIGN TRADE OF UZBEKISTAN

**Qutlimuratov Bahadir**

*Head of the customs department of Bukhara region, independent researcher.*

**Saidov Umarjon**

*Chief Inspector of Bukhara Region Customs Department, independent researcher.*

### Abstract

This article contains some scientific and practical considerations related to the use of the TIR Carnet. In particular, the article analyzes taking into account the process of digitalization of the existing transport and logistics system on a global scale. In the process of analysis, attention is paid to retrospective and prospective aspects of the processes associated with the application of TIR. Based on the results of the analysis, practical proposals are given from the point of view of the interests of Uzbekistan.

**Key words:** Foreign trade policy, transport and logistics system, TIR CARNET, European Union, e-TIR, IRU - world road transport organization, GDP, customs post border and foreign economic activity, COVID-19 pandemic, international convention.

### Kirish

O‘zbekiston tovarlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri bu **arzon, tezkor hamda xavfsiz** transport logistikasini takomillashtirish bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, ilk iqtisodiy ta’limotlardan bilish mumkinki XV-XVI asrlarda vujudga kelgan merkantilizm nazariyasida ham tashqi savdoning o‘rni va ahamiyati atroflicha o‘rganilgan.

Xususan, davlatning iqtisodiy farovonligida tilla va kumushni ahamiyatini yuqori qo‘yuvchi merkantilizm vakillari aktiv savdo balansiga erishish uchun bir qator tavsiyalarni, ya’ni:

- tashqi bozorlarni nisbatan arzon tovarlar sotish yo‘li bilan egallash hamda bir mamlakat tovarini olib boshqalariga uni qimmatiga sotish;

- mamlakatda aktiv savdo balansini saqlab turgan holda tovarlar importiga ruxsat etish (zeb-ziynat buyumlaridan tashqari);

- qulay savdo ishlarini amalga oshirish uchun oltin va kumushni chetga chiqarish, mamlakatda ularning massasini ko‘paytirish va aktiv savdo balansini saqdab turish uchun vositachilik qilishni ilgari surdilar.

Shundan bilish mumkinki, dastlabki iqtisodiy nazariyalardan boshlab xalqlar o‘rtasidagi savdoni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida transport-logistika tizimiga zarurat borasida bilvosita xulosaga kelish mumkin.

Qolaversa, klassik geosiyosat nazariyalari namoyondalaridan biri amerikalik A.Mehenga ko‘ra davlatning qudratiga ta’sir etuvchi omillardan biri sifatida uning geografik joylashuvini alohida qayd etib o‘tadi.

Unda davlatning ham urush davrida, ham tichlik davrida o'zining hayotiy muhim manfaatlarini amalga oshirishda qulay geografik makon va dengizga chiqqa olishi bilan qudratini tadqiq etgan.

Shu bilan birga, dunyodagi transport logistikasi sohasidagi raqamlar, jahon iqtisodiyotining mazkur tarmog'idagi salohiyati ancha salmoqli ekanligini ko'rish mumkin.

Xususan, 2020-yilga kelib dunyo davlatlarining yalpi ichki mahsulotlarida (YAIM) transport xizmatlarining ulushi 8 foizdan 12 foizgacha tashil qilib, global logistika sanoatining qiymati 9,6 trln. AQSH dollari hamda xalqaro miqyosida yuk tashishlar xizmatlarining narxi esa 4,1 trln. AQSH dollarini tashkil qilmoqda [1].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan milliy transport tizimini xalqaro maydonda o'z o'rnini topishi borasida ham ko'plab tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Xususan, o'tgan yilning 24-26-mart kunlari Davlat rahbari tomonidan Yangi O'zbekistonda ilk marotaba o'tkazilgan "1-Toshkent Investitsiyalar forumi"da so'nggi besh yillikdagi mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar borasida nutq so'zlab, amaliy tashabbuslar ilgari surildi. Natijada, anjuman yakunlari bo'yicha dunyoning 56 mamlakatidan 2 mingdan ortiq ishtirokchilar tomonidan 7,8 mlrd. dollarlik aniq shartnomalar va investitsiyaviy bitimlar paketi imzolanishiga erishildi [2].

O'z navbatida, 2022-yilning yilning 15-16-sentyabr kunlari Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Samarqand sammitida mintaqaviy transport-logistikasi tizimini rivojlantirish, bunda asosiy e'tiborni savdo-iqtisodiy vektoriga nisbat berilishi ahamiyatga molikdir.

Chunonchi, mazkur nufuzli tadbirda tashkilotning "huquqiy bazasi"ni rekord darajada - jami 44 ta hujjat bilan to'ldirilib, uning 10 ga yaqini transport hamda xalqaro savdoga bevosita va bilvosita aloqador ekanligini ko'rish mumkin [3].

Shulardan kelib chiqqan holda, ayni kunlarda jahon iqtisodiyotining "qon tomiri" hisoblangan transport logistikasida ham raqamlashish sari dadil qadamlar bilan ildamlab bormoqda.

Xususan, xalqaro yuk tashuvlarda o'zining xavfsizligi, tezkorligi, ixchamligi hamda o'zining ishonchliligi bilan muhim ahamiyatga ega hamda tashqi savdoda juda keng qo'llanilib kelinayotgan TIR CARNET hujjatining o'rni anchayindir.

#### **Mavzuning o'rganilganlik darajasi**

Xalqaro yuk tashuvlarda TIR CARNET kitobchasi (*keyingi o'rinlarda kitobcha deb yuritiladi*) 1975-yildan buyon qo'llanilib kelinayotgan bo'lsada, bu borada ilmiy ishlanmalar yetarli darajada emas.

Bu borada tadqiqot olib borilgan ishlar o'rganilganda, asosan MDH davlatlarida olib borilganligi ko'rish mumkin.

Xususan, tadqiqotchilar K.V.Xolopov hamda O.V.Sokolovalar o'z ishlarida Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqining (*keyingi o'rinlarda Yell deb ketiladi*) yagona transport makonini tashkil qilish hamda savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda kitobchanning ahamiyati va o'rni borasida fikr yuritgan [4].

Bular qatorida K.V.Xolopov, A.I.Zaboyevlar tadqiqotlarida mamlakatning tashqi savdosida avtomobil transportida yuk tashuvlarni o'ziga xos jihatlarini o'rganib, milliy iqtisodiyotdagi ta'sir ulushini o'rganishgan. Xususan, TIR kitobchalarini xalqaro tashuvlardagi qulayliklari va ahamiyatini tasniflab berishgan [5].

Rossiyalik tadqiqotchilar P.V.Kurenkov, A.F.Kotlyarenko, M.V.Buzuluskayalar esa kitobchalarni multimodal tashuvlar bilan bog‘liq izlanishlar olib borgan. TIR kitobchalarini ushbu yo‘sindagi tashuvlarni boshqa transport vositalari bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rgangan. O‘rganish davomida multimodal tashuvlarning bir transport vositasida (*asosan avtotransport tashuvlarda*) uzoq masofali tashuv jarayonlarida xarajat va vaqtni kamayishi natijalari ilmiy asoslab berilgan [6].

Shu bilan birga, rus tadqiqotchilaridan E.N.Fuks va V.A.Vikentevlar ham o‘z ishlanmalarini Yell misolida ko‘rib chiqqan holda tadqiqotlar olib borishgan bo‘lib 2016-2019 yillar oralig‘ida xalqaro tashuvlarni matematik-statik tahlil qilishgan. Unga ko‘ra avtomobil transportida TIR kitobchalaridan foydalangan holdagi tashuvlar kamayish tendensiyasini qayd etishib, quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatayotganini qayd etishgan. Xususan,

- mamlakat hududda TIR Carnetga o‘xshagan milliy kafolat tizimlarini paydo bo‘layotganligi;
- Yell doirasida tranzit axborot tizimlarini rivojlanib borayotganligi;
- bojxona tranzit tizimida rasmiylashtiruv jarayonida qog‘ozsiz hujjatlarni joriy qilinayotganligi kabi omillarni sdanab o‘tgan. [7]

Yuqorida qayd etilgan olimlarning tadqiqotlaridan TIR kitobchasining o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan bo‘lsada, uni raqamlashtirish natijasida qanday amaliy iqtisodiy samaradorlikka erishish borasida yondasahuvlar aks etmaganini bilish mumkin.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur maqola doirasida asosan avtomobil transportida xalqaro tashuvlarni amalga oshirish jarayonlari tahlil qilinib, mazkur tashuvlar milliy iqtisodiyotga ta‘sirining o‘ziga xos jihatlari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqotning olib borish jarayonida statistik ma‘lumotlar tahlili, qo‘llanilgan atamalarning etimologik jihatlarni tarixiy nuqtayi nazardan, shu bilan birga analiz, sintez usullari hamda huquqiy tushunchalarning qiyosiy tahlili bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

Shuningdek, xalqaro yuk tashuvlarning bugungi kundagi tendensiyalari rasmiy statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilingan.

#### **Tahlil va natijalar**

Tarixdan ma‘lumki 1945-yilda ikkinchi jahon urushi yakunlangandan so‘ng bir qator Yevropa mamlakatlarining yetakchilari urush ntijasida vayronaga aylangan mintaqani qayta qurish hamda mazkur makondagi davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish maqsadida o‘zaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini boshlab yuborishadi.

Shunga asosan, 1951-yilda ayrim Yevropa davlatlarining temir va po‘lat birlashmasi asosida birlashib, bugungi kunda iqtisodiy jihatdan qudratli makonga aylangan Yevorpa Ittifoqi integratsiyalashgan xalqaro transport tizimiga zarurat yuzaga kelgan edi. Natijada 1975-yil 14-noyabrda ushbu mintaqa mamlakatlari **“Xalqaro yo‘llarda tashish kitobchasidan foydalangan holda yuklarni xalqaro tashish to‘g‘risidagi bojxona konvensiyasi”**ni qabul qilishdi.

Ayni kunlarda mazkur hujjat qabul qilinishi bilan TIR CARNET kitobchalari nafaqat Yevropada balki Osiyo va Sharqiy Afrika davlatlarida ham keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Xususan, ushbu bojxona konvensiyasiga bugungi kunda 77 ta davlat a‘zo bo‘lib, mazkur davlatlardagi 31115 ta (*shundan O‘zbekistonda 966 ta*) tan olingan milliy transport operatorlari tomonidan kitobchalar qo‘llanilib kelinmoqda [7].

Ўз ўрнида эса CARNET soʻzini eski Oksford lugʻatidan oʻrganilganda qiziq tarixiy maʼlumotlarni koʻrish mumkin. Mazkur soʻz Britaniya Imperiyasining Osiyo va Uzoq Sharqdagi mustamlaka davlatlari bilan oʻrnatilgan savdo-sotiq munosabatlari natijasida kelib chiqqanligi bilan oʻz ifodasini topgan.


Jumladan, ingliz savdogarlari Hindiston hamda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatidan tovar-moddiy boyliklarini olib kelayotganda Britaniya portlaridan, mamlakat hududidiga kirayotgan paytda alohida bojxona imtiyozlariga ega boʻlish maqsadida maxsus “CARNET” deb yozilgan qogʻozdan foydalangan holda savdo sotiqni amalga oshirganlar.

Boshqa manbalarda esa “CARNET” soʻzi etimologik jihatdan fransuz tilidan (*oʻrta asrlar foydalanishda boʻlgan davriga xos*) olingan boʻlib, “quernet – toʻrt bogʻlamli yoki varaqli kitobcha”soʻzi vaqt oʻtgan sari soʻzning shakl oʻzgarishiga uchragan atama hisoblanadi. Bugungi kunda esa, soʻzning morfologik taʼsirga uchrashi natijasida “carnet” shakliga kelib qolgan [8].

Bugungi kunga kelib, ushbu konvensiya qoidalarining tadrijiy oʻzgarishlari oqibatida 5 ustun tamoyil asosida xalqaro yuk tashuvlar jarayoniga qoʻllanilib kelinmoqda.

Shunga koʻra xalqaro ekspertlarning fikriga koʻra kitobchadan foydalanishda tashqi savdoda ketadigan vaqtning 80% hamda xarajatlarning 38 %ga qisqarishi amaliyotda oʻzining isbotini topgan.

Bundan tashqari, jahon logistika bozorida yuk tashish boʻyicha tuzilgan shartnomalar yillik 210 dan 250 mlrd. AQSH dollarigacha baholanib, Xalqaro Jahon Bankining prognozlariga koʻra esa 2018-2024-yillar oraligʻida dunyo logistika sanoatining qiymatini doimiy oʻsib borishi boʻyicha baholamoqda (*2019-2020-yillarda boshlangan COVID-19 pandemiya davrini hisobga olmaganda*)[9]. Xususan,




**1-rasm. 2018-2024-yillar jahon transport-logistika tarmogʻi xizmatlarining prognoz koʻrsatkichlarining qiymati (trln. AQSH dollari hisobida).**

Shuningdek, oʻzining tashqi savdosida jahonda AQSHdan soʻng ikkinchi oʻrinda turuvchi Xitoy Xalq Respublikasining 2016-yilda mazkur konvensiyaga aʼzo boʻlishi bilan, Janubiy Yevropa bilan Janubi-Sharqiy Xitoy oʻrtasida avtomobil transportida tashuv vaqti 16 kunga qisqarishi, mazkur hujjatni davlatlararo xalqaro integratsiyaga qay darajada oʻzining ijobiy taʼsir koʻrsatilishi bilan izohlash mumkin [10].

Shu asnoda, mazkur kitobchadan joʻnatuvchi bojxona organida och sariq varagʻi yirtib olinib qoʻyib, qabul qiluvchi bojxona organida och yashil varagʻi olib qoʻyiladi. Misol tariqasida olinadigan boʻlsa, Tojikistondan “paxta xom ashyosi” tovari avtomobil transportiga Turkiyaga Oʻzbekiston-Turkmaniston-Eron davlatlari orqali eksport qilinganda TIR kitobchasining qoʻllanilishi quyidagicha boʻladi.

Bunda 1- Tojikiston “paxta xom ashyosi” tovari yuklangan joyda faoliyat olib boruvchi bojxona organi kitobchani och sariq varag’ini rasmiylashtirib, kitobchadan uni ajratib olib, mamlakatdan chiqib ketish uchun esa yashil varag’i belgilangan joyidan qirqib olinadi.

Xudda shu tartibda tranzit davlatlarning kirishida sariq, chiqishida esa yashil varaqlari qirqib olinib, tashqi savdo yukining oxirgi manzilida qabul qilib oluvchi bojxona organi esa yashil betini olib qolinadi.



**2-rasm. TIR kitobchasidagi rangli varaqlarning rasmiylashtiruv chizmasi**

O‘z navbatida, varaqlar soniga qarab kitobchalar o‘zining konvensiyaga a‘zo davlatlarining har biri uchun standartlashgan narxlariga ega. Mazkur hujjat 20.09.2022-yil holatida O‘zbekiston milliy tashuvchilari uchun 6 varaqlisi 33,21 hamda 14 varaqligisi 66,71 AQSH dollaridan sotilmoqda [11].

Shuningdek, olib borilgan izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki davlatlarning milliy tashuvchilari tomonidan ishlatilgan TIR CARNETlarning ulushi asosan Yevropa davlatlarining ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

Xususan, statistik ma‘lumotlarga ko‘ra 2001-yildan buyon dunyo mamlakatlari bo‘ylab tarqatiladigan kitobchalarning 55-60 foizi Yevropa davlatlarining milliy tashuvchilari tomonidan foydalanib kelinmoqda.

Jumladan, IRU ma‘lumotlari o‘rganilganda 2001-2021-yillar davomida tashkilot tomonidan tarqatilgan 48 787 798 ta TIR kitobchalaridan to‘rtinchi qismi ya‘ni 36 626 099 tasi Yevropa mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri keladi [12].

Mazkur yillar davomida ishlatilgan kitobchalarning asosiy ulushi Turkiya (9 287 999), Polsha (4 368 000), Rossiya (7 135 400), Ukraina (4 815 700) hamda Belorossiya (3 081 849) kabi davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shu bilan birga, e‘tiborli tomoni shundaki tarqatilyotgan kitobchalarning ko‘lami 2012-yildan so‘ng keskin tushib ketganligini ko‘rish mumkin. Xususan, ishlatilgan kitobchalar soni 2010-2021-yillar oralig‘ida raqamlarda ko‘riladigan bo‘lsa yildan-yilga 15-20 foizga kamayib bormoqda.

**1- jadval**

**2010-2021-yillarda IRU tomonidan O‘zbekiston hamda dunyoning ayrim davlatlariga tarqatilgan TIR CARNET kitobchalarining soni**

	Davlat	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
1.	Turkiya	685000	540500	385500	325100	213900	200000	189000	200000	55000	96999
2.	Rossiya	598000	529700	300400	163900	137800	122600	121000	95200	83200	62000
3.	Eron	85000	105000	90000	85000	118000	115000	165000	85000	120000	100000
4.	Ukraina	376800	434000	95000	154500	140700	143600	106000	103500	71500	109500
5.	O‘zbekiston	17500	7500	9000	9000	27000	14000	32400	43000	89000	115000
	***										

Jami	3158300	2920150	1945050	1500450	1223400	1154650	1020650	858100	679300	708998
------	---------	---------	---------	---------	---------	---------	---------	--------	--------	--------

O‘z o‘rnida esa ko‘pgina iqtisodiy rivojlangan Yevropa davlatlari va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashining (BMT IIK) tashabbusi bilan elektron shakldagi TIR CARNET (e-TIR) hujjati asosida xalqaro tashuvlarni amalga oshirish bo‘yicha amaliy ishlar boshlab yuborilgan

Xususan, dunyoda birinchi bo‘lib 2016-yil mart oyida sinov tariqasida Eron Islom Respublikasi va Turkiya o‘rtasida e-TIRni qo‘llagan holda xalqaro yuk tashilib, sinov loyihasi amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida esa mazkur jarayon O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-sonli Farmonidagi aniq belgilangan tadbirlarda o‘z ifodasini topgan.

Xususan, mazkur Farmon asosida “ye-TIR” loyihasi sinov tariqasida ilk bor 2020-yilning noyabr oyida O‘zbekiston va Qozog‘iston, 2021-yilning may oyidan esa, O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi tashuvlarda qo‘llanila boshlandi.


Kelgusida O‘zbekiston bilan Pokiston, Eron, Xitoy, Qirg‘iziston o‘rtasidagi tashuvlarda ham ushbu loyiha amaliyotga joriy etilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek e‘tiborli tomoni shundaki, oxirgi yillarda O‘zbekiston milliy tashuvchilari tomonidan TIR kitobchalaridan foydalanish sezilarli darajada oshganligini ko‘rish mumkin.

Chunonchi, 2001-2021-yillar mobaynida o‘zbek tashuvchilari 415700 ta TIR kitobchalaridan foydalanilgan bo‘lsa, shundan 2021-yilda 115000 ta kitobchadan foydalanib, boshqa davlatlarga nisbatan eng ko‘p TIR KARNETlardan xalqaro tashuvlarda qo‘llanilgan.

Albatta mazkur ko‘rsatkich milliy tashuvchilarning davlatlarning xalqaro tashuvlarida o‘z o‘rnini ijobiy tomonga o‘zgarayotganligini ko‘rsatmoqda.

Xususan, quyidagi diagramma orqali o‘zbek tashuvchilarining so‘nggi 10 yillikda foydalanilgan kitobchalarning dinamikasini bilish mumkin.



**3-rasm. 2010-2021-yillarda ishlatilgan TIR CARNET kitobchalarining soni**


Shu bilan birga kitobchalarning milliy tashuvchilar tomonidan eksport yo‘nalishida xalqaro tashuvlarda qo‘llanilganda tranzit davlatlarida bojxona kuzatuv hamda ba‘zi bojxona tartibotlaridan ozod etilishini nazarda tutish lozim.

Jumladan, bugungi kunda O‘zbekiston bilan chegaradosh barcha davlatlarda (*shuningdek O‘zbekistonda ham*) mazkur kitobchani qo‘llagan holda xalqaro yuklar tashilganda bojxona kuzatuv va nazorati shakllaridan ozod etilishi ma‘lum.

O‘z navbatida, yuqorida qayd etilganidek TIR KARNET kitobchasining milliy tashuvchilari tomonidan qo‘llanilishi xalqaro yuk tashuvlar vaqtining 80, xarajatlarining esa 38 foizga qisqarishini ta’kidlash joiz.

Tahlillarga kelib chiqib, mazkur kitobchadan qo‘llanilganda xalqaro tashuvlarda mamlakat imidjini va salohiyatini yaxshilash maqsadida muhim huquqiy vosita bo‘lib qolmoqda.

Chunonchi, tahlillarga ko‘ra milliy tashuvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan umumiy xalqaro tashuvlar soni unda foydalanilayotgan TIR KARNETlar miqdori salmoqli o‘ringa ega emas.



#### **4-rasm. O‘zbekiston milliy tashuvchilari tomonidan amalga oshirilgan xalqaro tashuvlarda TIR KARNET kitobchalarining o‘rni.**

Raqamli diagrammadan ko‘rish mumkinki, avtomobil transportida milliy tashuvchilar tomonidan umumiy hisobda qo‘llanilgan TIR KARNETlar 2017-yilda 15 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 22 foizli ko‘rsatkichga erishgan [13].

Boshqacha aytganda, o‘zbek tashuvchilarining har beshta tashuvlaridan faqatgina bittasi mazkur “imtiyozli” kitobchalardan foydalanilayotganini ko‘rish mumkin.

Bundan ko‘rish mumkinki, TIR KARNETsiz harakatlangan milliy tashuvchilar oraliq tranzit davlatlarining bojxona ma‘muriyatchiligining (*ma‘lum bir tarif stavka asosida bodxona kuzatuv, tovarlar tekshirish bilan bog‘liq xarajatlar*) qo‘llanilishiga olib kelib, tashqi savdo yuklarini ortiqcha xarajatlar bilan dunyo bozoriga kirib borishiga olib keladi.

#### **Xulosa**

Tahlillardan kelib chiqib **xulosaga** kelish mumkinki, O‘zbekistonda xalqaro tashuvlarda qo‘llanilayotgan TIR KARNET kitobchasining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatmoqda.

**Istiqbolda** esa, tashqi savdo yuklarini, ayniqsa milliy eksport mahsulotlarini o‘zbek tashuvchilari tomonidan TIR kitobchalari asosida tashilishida tashish xarajatlarining kamayishi natijasida O‘zbekiston tovarlarining jahon bozorida o‘z o‘rni va raqobatbardoshligini ishonchli mutahkamlashga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar beriladi:

- O‘zbekiston eksport yuklarini tashishda “TIR KARNET” kitobchasi bilan bog‘liq xarajatlarni davlat tomonidan kompensatsiya asosida qoplab berish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

- SHHT davlatlari makonida “e-TIR” loyihasini ishga tushirish bo‘yicha tashabbusni mintaqaviy tuzilma doirasida o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan xalqaro anjumanlarning kun tartibiga qo‘yish.

Mazkur takliflar amaliyotda o‘z aksini topganda ochiq dengizga chiqishda imkonoyati cheklangan (ikki karra yopiq) O‘zbekiston eksportyorlarini moliyaviy jihatdan rag‘bantlantirish, natijada esa milliy mahsulotlarni dunyo bozorida raqobatbardoshligini oshirishga erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. [https:// data. bts. Gov / stories / s / Transportation-Economic-Trends-Contribution-of-Tra/pgc3-e7j9](https://data.bts.gov/stories/s/Transportation-Economic-Trends-Contribution-of-Tra/pgc3-e7j9) / Contribution of Transportation to the Economy: Final Demand Attributed to Transportation.

2. [https:// review.uz/oz/post/o-tashkentskom](https://review.uz/oz/post/o-tashkentskom) – mejdunarodnom – investicionnom - forume-kommentarii-zarubejnx-ekspertov / Birinchi xalqaro Toshkent investitsiya forumi (+xalqaro ekspertlar fikrlari).

3. <https://president.uz/uz/lists/view/5544> // Samarqand sammiti yakunida salmoqli hujjatlar to‘plami imzolandi.

4. Холопов К.В., Соколова О.В. “Использование системы МДП во внешней торговле ЕАЭС”. Российский внешнеэкономический вестник. №3. 2018 й. 84-96 бетлар.

5. Холопов К.В., Забоев А.И. Рынок международных автомобильных перевозок в Российской Федерации в 2016 г. и перспективы его развития в 2017 г. // Российский внешнеэкономический вестник. №2, 2017 й. 98-бет.

6. Куренков П.В., Котляренко А.Ф., Бузулуцкая М.В. Информационное взаимодействие между субъектами рынка транспортных услуг в системе смешанных сообщений // Информационные технологии на железнодорожном транспорте: Материалы третьей международной научно-практической конференции «ИНФОТРАНС-98». - СПб., 1998.- с. 149, 150.

7. Е. Н. Фукс, В. А. Викентьев. Система таможенного транзита во внешнеторговой деятельности Евразийского Экономического Союза в современных условиях. Технология и система таможенного контроля. Вестник Российской Таможенной Академии. №1 2020 й. 87-94 бетлар.

8. <https://unece.org/authorized-transport-operators>.

9. 2. <https://www.statista.com/statistics/943517/logistics-industry-global-cagr/> Size of the global logistics industry from 2018 to 2024.

10. D.Parkinson, J.Noble. Oxford Business English Dictionary. 2006 й. Oxford university press. 644 б. 79- бет.

11. <https://www.iru.org/news-resources/newsroom/tir-trade-corridor-between-china-and-spain-ready-business> // TIR trade corridor between China and Spain ready for business.

12. <https://unece.org/tir-carnet-prices> // TIR Carnet Prices.

13. <https://unece.org/tir-carnets-//> Total amount of TIR Carnets issued by IRU to National Associations 2001 – 2021.

14. Davlat bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida maqola muallifi tomonidan shakllantirildi.